

**DUDUQLANUVCHILARDA KARREKSION ISHDA
LOGORITMIKADAN FOYDALANISH**

Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti

Maxsus pedagogika logopediya yo'nalishi 513-21(413)-guruh talabasi

Esonboyeva O'g'iloy Xayrullo qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada duduqlanishning psixofiziologik asoslari, uning logopedik korreksiyasida logoritmikaning ahamiyati va amaliy samaradorligi ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan logoritmik mashg'ulotlar orqali nafaqat nutq ritmi va nafas funksiyasi tiklanishi, balki emotsional-irodaviy sohaning mustahkamlanishi, o'ziga ishonch va muloqotga tayyorlikning ortishi ta'minlanadi. Maqolada logoritmikaning pedagogik, psixologik va terapevtik jihatlari yoritilib, duduqlanish muammosiga kompleks yondashuv zarurligi asoslab berilgan. Tajriba natijalari logoritmik metodikaning samaradorligini isbotlaydi.

Kalit so'zlari: duduqlanish, logoritmika, nutq ritmi, psixomotor rivojlanish, logopedik korreksiya, nafas mashqlari, harakat va nutq uyg'unligi, emotsional holat, ritmik mashg'ulotlar.

Abstract: This article analyzes the psychophysiological foundations of stuttering, the importance and practical effectiveness of logorhythmics in its speech therapy correction from a scientific and theoretical point of view. Through logorhythmic exercises with stuttering children, not only the restoration of speech rhythm and respiratory function is ensured, but also the strengthening of the emotional-volitional sphere, self-confidence and readiness for communication are strengthened. The article highlights the pedagogical, psychological and therapeutic aspects of logorhythmics and justifies the need for a comprehensive approach to the problem of stuttering. The results of the experiment prove the effectiveness of the logorhythmic methodology.

Key words: *stuttering, logorhythmics, speech rhythm, psychomotor development, speech therapy correction, breathing exercises, harmony of movement and speech, emotional state, rhythmic exercises.*

Аннотация: *В статье с научно-теоретической точки зрения анализируются психофизиологические основы заикания, значение и практическая эффективность логоритмики в его логопедической коррекции. Логоритмические упражнения с заикающимися детьми не только восстанавливают ритм речи и дыхательную функцию, но и укрепляют эмоционально-волевую сферу, повышают уверенность в себе, готовность к общению. В статье освещаются педагогические, психологические и терапевтические аспекты логоритмики, обосновывается необходимость комплексного подхода к проблеме заикания. Экспериментальные результаты подтверждают эффективность логоритмической методологии.*

Ключевые слова: *заикание, логоритмика, ритм речи, психомоторное развитие, логопедическая коррекция, дыхательные упражнения, координация движения и речи, эмоциональное состояние, ритмические упражнения.*

Nutq — insonning ijtimoiy hayotdagi asosiy muloqot vositasi hisoblanadi. Duduqlanish (logonevroz) — bu nutq aktining ritmik, melodik, hamda dinamik komponentlarining buzilishi bilan kechadigan nutq buzilishi bo‘lib, ko‘pincha nevroz holatlari bilan kechadi. Bunday holat bolalarda psixologik, emotsional va ijtimoiy muammolarga sabab bo‘lishi mumkin. Bugungi kunda logopedik amaliyotda duduqlanuvchilarning nutqini tiklashda kompleks yondashuvlar zarur bo‘lib, ularning eng muhimlaridan biri sifatida logoritmika ajralib turadi.

Duduqlanish bugungi kunda logopedik yordamga ehtiyoji yuqori bo‘lgan nutq buzilishlaridan biri hisoblanadi. U, odatda, bolalik davrida boshlangan bo‘lib, psixologik, emotsional va ijtimoiy muammolarga sabab bo‘ladi. Logoritmika o‘zining musiqiy, ritmik va harakatli komponentlari orqali duduqlanishning psixomotor

negizlariga ta'sir ko'rsatadi.

Logoritmika — bu harakat, musiqa va nutq elementlarining uyg'unligini ta'minlovchi metodik tizim bo'lib, bolalarning psixomotor funksiyalarini faollashtiradi, nutq ritmini me'yorga keltiradi va emotsional holatni barqarorlashtiradi. U duduqlanuvchilarning psixofiziologik holatini tiklash, nutq sur'atini me'yorga keltirish, nafas olishni boshqarish hamda artikulyatsiya apparatini kuchaytirish maqsadida qo'llaniladi.

Duduqlanuvchi bolalarda olib boriladigan logoritmik mashg'ulotlarda erishiladigan yutuqlar:

Nutq sur'atini va ritmini me'yorga keltirish;

Nutq bilan harakatni muvofiqlashtirish;

Emotsional holatni barqarorlashtirish;

Artikulyatsiya apparatini faollashtirish;

To'g'ri nafas olishni shakllantirish;

O'ziga bo'lgan ishonchni oshirish.

Logoritmikaning duduqlanuvchilar bilan ishlashdagi afzalliklari

Ilmiy jihatdan qaralganda, logoritmika duduqlanuvchi bolalarda quyidagi natijalarni beradi:

Nutq ritmini tiklaydi – musiqa va ritmik harakatlar yordamida avtomatlashtirilgan nutq sur'ati shakllanadi;

Psixomotor koordinatsiyani yaxshilaydi – harakat va nutq uyg'unlashadi, bu esa nutq davomiyligini oshiradi;

Emotsional zo'riqishni kamaytiradi – musiqiy-funksional muhit psixik relaksatsiyani ta'minlaydi;

Nafas olish va fonatsiyani me'yorlashtiradi – nutq jarayonidagi nafas muvozanatini tiklaydi.

Logoritmik mashg'ulotlar quyidagi komponentlardan iborat bo'ladi:

Harakatli-musiqiy mashqlar: “ritmgga yurish”, “ritmda to'xtab gapirish”, “musiqa ostida qarsak va so'z uyg'unligi”;

She'rlar bilan uyg'un harakat: ritmik she'rlar, o'z ovozi nazorat qilishga o'rgatuvchi o'yinlar, fonematik eshituvni faollashtiruvchi mashqlar;

Nafas-fonatsion mashqlar: ritmik she'rlar, o'z ovozi nazorat qilishga o'rgatuvchi o'yinlar, "pufla-soz ayt", "bir nafasda ayt", "kuylab so'zla";

O'yin elementlari: "qiziqarli topshiriq bajar va gapir", "tovushni takrorla", "qahramon bo'lib so'zla".

O'zbekiston, Rossiya va boshqa mamlakatlardagi logopedik markazlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, logoritmika yordamida olib borilgan mashg'ulotlar 2–3 oy ichida:

nutq ritmida sezilarli yaxshilanish;

nafas chiqarishda barqarorlik;

gap boshlashdagi to'xtalishlar sonining kamayishi;

bolada nutqqa nisbatan ishonch hosil bo'lishi natijasini beradi.

Xulosa

Duduqlanishni tuzatish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, logoritmika usuli bu borada samarali vosita hisoblanadi. U bolalarning nutqini, psixomotor rivojlanishini, o'zini tutish va emotsional muvozanatini tiklashda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, logopedlar o'z amaliyotida logoritmik mashqlarni tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda qo'llashlari lozim. Logoritmika duduqlanish bilan kechuvchi nutq buzilishlarini tuzatishda kuchli psixologik va fiziologik ta'sirga ega metod hisoblanadi. U nafaqat nutq faoliyatini, balki bolalarning emotsional-irodaviy sohasini ham rivojlantiradi. Shu bois, logopedik korreksion ishlar tizimida logoritmika muhim o'rin tutadi va doimiy ravishda qo'llanishi lozim.

Logoritmika metodikasi duduqlanuvchi bolalarning nutqini korrektsiyalashda ko'p qirrali va yuqori samarali vosita sifatida tan olingan. U nafaqat nutqni tuzatadi, balki bolaning o'ziga ishonchini oshiradi, muloqotga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi, emotsional fonini barqarorlashtiradi. Shu sababli, har bir logoped logoritmik mashqlarni o'z ish tajribasiga integratsiya qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yastrebova A.V. Nutqi buzilgan bolalar bilan ishlashda logoritmika. — Moskva: Rech', 2015.
2. Xanina L.S. Duduqlanuvchi bolalar bilan korrektsion ishlarda logoritmik mashqlar. — Toshkent: Fan, 2014.
3. Abdullayeva G.X. Logopediya asoslari. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018.
4. Sharipova D. Nutq buzilishlarini tuzatish metodikasi. — Samarqand: Zarafshon, 2020
5. Volkova G.A. Logopediya: Bolalarda nutq buzilishlarini korrektsiyalash. — Toshkent: O'qituvchi, 2012.
6. [www. https://lex.uz](https://lex.uz)
7. [www. pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)
8. www.uzbekscholar.com